


## Korxonalar va tashkilotlar

(2018 yil yanvar-noyabr)

2018 yilning yanvar-noyabr oyida Navoiy viloyatida 1913 takorxonalar va tashkilotlar yangi tashkil etildi, bu esa o'tgan yilning shu davriga nisbatan 686 taga ko'pdir.

Buning natijasida joriy yilning boshiga nisbatan faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni 1628 taga (17,2 %) ga o'sgan hamda ularning umumiyligi soni 11097 tani tashkil etgan.


### Korxona va tashkilotlar yillar kesimida soni (fermer va dehqon xo`jaliklaridan tashqari), birlikda




Mamlakatimizda qulay ishbilarmonlik muhitini jadal rivojlantirish borasida qator ijobjiy o'zgarishlar amalga oshirilmoqda. O'z o'rinda tadbirkorlik sub'ektlarini davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yish borasida ham qonunchilikda muhim qarorlar qabul qilinib, davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yishni avtomatlashtirilgan tizimi bosqichma-bosqich ishlab chiqilib, xayotga tadbiq qilinmoqda.

Bu esa aholi hamda xorijiy sarmoyadorlarning o'z shaxsiy biznesini yo'lga qo'yish va rivojlantirish uchun muhim omil bo'lib xizmat qilmoqda.

## Hududlar kesimida faoliyat yuritayotgan korxonalar va tashkilotlar soni (fermer va dehqon xo`jaliklaridan tashqari), birlikda




## Ro'yxatdan o'tgan korxonalar va tashkilotlarning Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishi (fermer va dehqon xo`jaliklaridan tashqari, 2018 yilning 1 dekabr holatiga, birlikda)



Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha jami faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlarning umumiy soniga nisbatan 19,7 % savdoda, 16,2 % sanoatda, 9,3 % qurilishda, 11,5 % qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligidagi, 7,7 % yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda, 4,1 % tashish va saqlash, 1,4 % axborot va aloqa, 2,0 % sog'linqi saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish va 28,1 % boshqa faoliyat turlari hissasiga to'gri keladi.

### Faoliyat ko`rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning hududlar kesimida soni, o'sish dinamikasi

(fermer va dehqon xo`jaliklaridan tashqari) birlikda



## Ro'yxatdan o'tgan va faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning o'sish dinamikasi


	Ro'yxatdan o'tgan	Faoliyat ko'rsatayotgan	2018-yil 1 dekabr holatiga	
			Ro'yxatdan o'tgan, %	Faoliyat ko'rsatayotgan, %
<b>Navoiy viloyati</b>	<b>11217</b>	<b>11097</b>	<b>100,0</b>	<b>100,0</b>

### *Shahar va tumanlar:*

Navoiy sh.	3322	3284	29,6	29,6
Zarafshon sh.	707	699	6,3	6,3
Konimex	346	340	3,1	3,1
Qiziltepa	1244	1234	11,1	11,1
Navbahor	990	978	8,8	8,8
Karmana	1935	1914	17,3	17,2
Nurota	936	934	8,4	8,4
Tomdi	191	187	1,7	1,7
Uchquduq	420	416	3,7	3,8
Xatirchi	1126	1111	10,0	10,0

2018 yil yanvar-noyabr holatiga 1913 ta korxonalar va tashkilotlar yangi tashkil etilgan. Bu esa 2017 yilning shu davriga nisbatan 55,9 % ga ko'pdir. Eng ko'p yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar Navoiy shahrida (443 ta), Karmana (290 ta), Nurota (204 ta) tumanlarida va Zarafshon shahrida (205 ta) tashkil etilgan. Eng kam Uchquduq (100 ta), Konimex (75 ta) hamda Tomdi (35 ta) tumanlarida tashkil etilgan.

## Hududlar bo'yicha yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning soni, birlikda




Agar iqtisodiy faoliyat turlari kesimida ko'rsak eng ko'pi savdoda (294 ta), sanoatda (355 ta), qurilishda (225 ta) va qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida (324 ta) sohalarida tashkil etilgan. Eng kami esa sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlarda (32 ta), axborot va aloqada (39 ta) hamda tashish va saqlashda (82ta) tashkil etilganligi kuzatilmoqda.

**Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yillar kesimidagi soni, birlikda**  
**(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)**

	2016 yil 1 dekabr xolatiga			2017 yil 1 dekabr xolatiga			2018 yil 1 dekabr xolatiga		
	Jami	o'tgan yilga nisbatan, %	umumiyl soniga nisbatan, %	Jami	o'tgan yilga nisbatan, %	umumiyl soniga nisbatan, %	Jami	o'tgan yilga nisbatan, %	umumiyl soniga nisbatan, %
Sanoat	177	114,9	21,5	257	145,2	20,9	355	138,1	18,6
Savdo	173	103,0	21,0	204	117,9	16,6	294	144,1	15,4
Qurilish	70	70,7	8,5	86	122,9	7,0	225	261,6	11,8
Qishloq va o'rmon xo'jaligi	152	135,7	18,4	283	186,2	23,1	324	114,5	16,9
Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	91	109,6	11,0	136	149,5	11,1	186	136,8	9,7
Tashish va saqlash	53	220,8	6,4	76	143,4	6,2	82	107,9	4,3
Axborot va aloqa	30	58,8	3,6	13	43,3	1,1	39	300,0	2,0
Sog'lqn ni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	16	88,9	1,9	26	162,5	2,1	32	123,1	1,7
Boshqa turlari	62	163,2	7,5	146	235,5	11,9	376	257,5	19,7


## Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari kesimidagi soni, birlikda



### Tashkiliy-huquqiy shakllari tasniflagichi bo'yicha faoliyat yuritayotgan tijorat korxonalarining umumiyl soni (fermer va dehqon xo`jaliklaridan tashqari)

2018 yil 1 dekabr holatiga 9091 ta tijorat shaklidagi korxonalar va tashkilotlar faoliyat ko'rsatayotgan bo'lib, shundan xususiy korxonalar – 3447 ta, oilaviy korxonalar – 703 ta, mas'uliyati cheklangan jamiyatlar – 4698 ta, va boshqalar 243 tani tashkil etadi.


**Tashkiliy-huquqiy shakllari tasniflagichi bo`yicha  
tijorat korxonalarining umumiy soni  
(fermer va dehqon xo`jaliklaridan tashqari)**




**Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni**

2018 yil 1 dekabr holatiga faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni 100 tani tashkil etdi. O'tgan yilning shu davriga nisbatan 60 taga yoki 66,7 % ga o'sgan. Shuningdek Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalardan 63 tasi qo'shma korxonalar, 37 tasi esa xorijiy korxonalar hisoblanadi.

**Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar yillar davomida o'sishi, birlikda**



## Faoliyat ko`rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar tarkibida qo'shma korxonalar va xorijiy korxonalarning soni, birlikda




Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarning asosiy qismi Navoiy shahar 35 ta (35,0 %), Karmana tumani 26 ta (26,0 %) hissalariga to'g'ri keladi. Eng kam xorijiy kapital ishtirokida tashkil etilgan korxonalar Konimex 4 ta (4,0 %), Xatirchi 2 ta (2,0 %) va Tomdi 1 ta (1,0 %) tumanlari hissalariga tog'ri keladi.

Bu esa mazkur hududlarda xorijiy hamkorlar bilan ishlashni, investitsiyalar jalb etish borasida amalga oshirilishi lozim bo'lgan ishlarni yanada rivojlantirishni talab etadi.

Agar faoliyat yuritayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarni iqtisodiy faoliyat turlari kesimida ushbu ma'lumotlarni 2018 yil 1 dekabr holatiga ko'rsak eng ko'p sanoatda 59 ta (59,0 %), savdoda 8 ta (8,0 %), qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi 15 ta (15,0 %) hamda boshqa faoliyat turlarida esa 9 ta (9,0 %) tashkil qilgan. Eng kamlari esa tashish va saqlashda 3 ta (3,0 %), yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda 4 ta (4,0 %), axborot va aloqa 1 ta (1,0%) va qurilishda 1 ta (1,0 %) tashkil qilgan. Shundan ko'rinish turibdiki faoliyat yuritadigan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarning asosiy qismi sanoat va savdo faoliyat turiga to'g'ri kelarkan. Shuningdek eng kam ulushi esa sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar hamda axborot va aloqa faoliyat turlariga to'g'ri keladi.

## Faoliyat ko`rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarni iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha soni (birlikda)



2018 yilning yanvar-noyabr oyida xorijiy kapital ishtirokidagi yangi tashkil etilgan korxonalarning soni 38 tani tashkil qilgan. Bu ko'rsatkich esa o'tgan yilning shu davriga nisbatan 35 taga ko'paygan.

Bunda, Rossiya Federatsiyasi rezidentlari kapitali ishtirokida – 8 ta, Turkiya Respublikasi – 2 ta, Xitoy Xalq Respublikasi-9 ta va Koreya Respublikasi – 4 ta yangi korxonalar ro'yxatdan o'tgan. Shuningdek, 2018 yil davomida Afg'oniston Islom Respublikasi, Hindiston Respublikasi, Germaniya Federativ Respublikasi, Ukraina, Ozarbayjon Respublikasi va boshqa davlatlar rezidentlari qo'shma faoliyatga qiziqish bildirdilar.

**Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarning davlatlar kesimidagi soni, (yanvar-noyabr holatiga) birlikda**




Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarni iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'radigan bo'lsak, asosan sanoatda 18 ta, savdoda 4 ta, qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida 9 ta, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda 2 ta, axborot va aloqada 1 ta va boshqa faoliyat turlarida 4 ta xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar yangi tashkil etilgan.

**Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi  
korxonalarining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha  
soni**

	<b>2017 yil yanvar-noyabr</b>	<b>2018 yil yanvar-noyabr</b>
<b>Sanoat</b>	<b>2</b>	<b>18</b>
<b>Savdo</b>	-	<b>4</b>
<b>Qurilish</b>	-	-
<b>Qishloq va o'rmon xo'jaligi</b>	<b>1</b>	<b>9</b>
<b>Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar</b>	-	<b>2</b>
<b>Tashish va saqlash</b>	-	-
<b>Axborot va aloqa</b>	-	<b>1</b>
<b>Sog'linqi saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish</b>	-	-
<b>Boshqa turlari</b>	-	<b>4</b>


**Kichik korxona va mikrofirmalar soni**

2018 yil 1 dekabr holatiga viloyatda faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxona va mikrofirmalarning soni 9014 tani tashkil qilgan. Bu ko'rsatkich 2017 yil 1 dekabr holatiga qaraganda 19,8 % ga oshgan. Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxona va mikrofirmalarning asosiy qismi yani 2779 tasi (30,8 %) Navoiy shahriga, 1661 tasi (18,4 %) Karmana, 1004 tasi (11,1 %) Qiziltepa hamda 802 tasi (8,9 %) Xatirchi tumanlari hissalariga to'g'ri keladi.



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida faoliyat ko'rsatayotgan jami 9014 kichik korxona va mikrofirmalarning 2181 tasi (24,2 %) – savdoda, 1769 tasi (19,6 %) - sanoatda, 1031 tasi (11,4 %) - qurilishda, 1232 tasi (13,7 %) - qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligidagi, 849 tasi (9,4 %) - yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasida, 442 tasi (4,9 %) - tashish va saqlashda, 149 tasi (1,7 %) - axborot va aloqa sohasida, 167 tasi (1,9 %) - sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatishda, shuningdek 1194 tasi (13,2 %) - boshqa faoliyat turlari hissalariga to'g'ri keladi. Shundan ko'rinish turibdiki, faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxona va mikrofirmalarning asosiy qismi sanoat va savdo faoliyat turlariga to'g'ri keladi. Shuningdek, eng kam ulushi esa sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar hamda axborot va aloqa faoliyat turlariga to'g'ri keladi.


## Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxona va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, % da



2018 yil yanvar-noyabr holatiga 1698 ta kichik korxona va mikrofirmalar yangi tashkil etilgan. Bu esa 2017 yilning shu davriga nisbatan qaraganda 47,4 % ga ko'proqdir. Eng ko'p yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar Navoiy shahrida (388 ta), Karmana (246 ta), Nurota (198 ta) tumanlarida va Zarafshon shahrida (200 ta) tashkil etilgan. Eng kam Konimex (69 ta), Uchquduq (82 ta) hamda Tomdi (30 ta) tumanlarida tashkil etilgan.

Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida esa eng ko'pi savdoda (294 ta), sanoatda (355 ta), qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida (323 ta) va qurilishda (225 ta) tashkil etilgan. Eng kam esa sog'linqi saqlash va ijtimoiy xizmatlarda (32 ta), axborot va aloqada (39 ta) hamda tashish va saqlashda (82 ta) tashkil etilgan.



## Yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha soni



### Oilaviy korxonalar soni


Yuridik shaxs sifatida davlat ro`yxatidan o'tgan oilaviy korxonalar soni - 2018 yilning 1 dekabr holatiga 705 tani tashkil etib, ulardan 703 tasi yoki 99,7 % faoliyat yuritadi. Bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan olganda davlat ro'yhatidan o'tganlarning hamda faoliyat ko'rsatayotganlarning umumiy soni o'rtacha 43,0 % ga oshganligini ta'kidlash lozim.

## Oilaviy korxonalar sonining o'sish dinamikasi, birlikda



Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalarning iqtisodiy faoliyat turlari kesimida qaralganda oilaviy korxonalarning 21,2 % yoki 149 tasi sanoat, 22,5 % yoki 158 tasi yashash va ovqatlanish xizmatlari, 18,3 % yoki 129 tasi savdo, 25,6 % yoki 180 tasi qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi, 1,1 % yoki 8 tasi qurilish, 1,4 % yoki 10 tasi axborot va aloqa, 1,0 % yoki 7 tasi tashish va saqlash, 2,1 % yoki 15 tasi sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish hamda 6,8 % yoki 47 tasi boshqa faoliyat turlari hissasiga to`g`ri kelmoqda.

## Faoliyat ko`rsatayotgan oilaviy korxonalarini iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, % da



Statistik registrlarni yuritish bo'limi  
Tel.:71-230-84-56